


**2019-yil 1-sentabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan
korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 4106 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1269 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4141 ta (14,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 32398 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-sentabr holatiga 32398 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,7 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,4 % savdo, 20,7 % sanoat, 9,3 % qurilish, 6,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,8 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 24,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.09.2019 yil	
	01.09.2018 yil	01.09.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %

Jami	28257	32398	114,7	100
-------------	--------------	--------------	--------------	------------

shundan:


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1969	2169	110,2	6,7
Sanoat	5666	6707	118,4	20,7
Qurilish	2463	3015	122,4	9,3
Savdo	7263	8545	117,7	26,4
Tashish va saqlash	1059	1247	117,8	3,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1334	1514	113,5	4,7
Axborot va aloqa	561	593	105,7	1,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	619	736	118,9	2,3
Boshqa turlari	7323	7872	107,5	24,3

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (10645 ta), Asaka (2930 ta), Shahrixon (2291 ta), Andijon (2277 ta), Oltinko'l (1700 ta) va Qo'rg'ontepa (1662 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Bo'z (752 ta), Ulug'nor (618 ta) tumanlari hamda Xonobod (515 ta) shahrida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 30954 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4137 ta (15,4 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,0 % savdo, 20,7 % sanoat, 9,3 % qurilish, 6,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 24,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (10284 ta), Asaka (2898 ta), Andijon (2100 ta), Shahrixon (2019 ta), Oltinko'l (1654 ta) va Izboskan (1505 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Bo'z (744 ta), Ulug'nor (606 ta) tumanlari hamda Xonobod (510 ta) shahrida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-avgust oylarida 4106 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1269 taga ko'pdir.


Yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Andijon shahri (1250 ta), Asaka (352 ta), Shahrixon (322 ta), Andijon (289 ta), Izboskan (237 ta) va Qo'rg'ontepa (220 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Bo'z (94 ta), Ulug'nor (53 ta) tumanlari hamda Xonobod (77 ta) shahrida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan
korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1550 ta), sanoat (1113 ta), qurilish (457 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (164 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (161 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (83 ta) va axborot va aloqa (67 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan
korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-sentabr holatiga 26167 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6209 ta, oilaviy korxonalar – 686 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 18694 ta va boshqalar 578 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-sentabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 278 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 83 taga yoki 42,6 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va boshqa davlatlar hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-sentabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 278 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqorisi Andijon shahri (106 ta), Andijon (26 ta), Asaka (18 ta), Shahrixon (17 ta) va Oltinko'l (16 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Xo'jaobod va Izboskan (8 ta), Jalolquduq (7 ta) hamda Paxtaobod (6 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 151 tasi qo'shma korxonalar, 127 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Andijon viloyati	278	100
<i>Tuman va shaharlar:</i>		
Oltinko'l	16	5,8
Andijon	26	9,3
Baliqchi	10	3,6
Bo'z	5	1,8
Buloqboshi	13	4,7
Jalolquduq	7	2,5
Izboskan	8	2,9
Ulug'nor	4	1,4
Qo'rg'ontepa	9	3,2
Asaka	18	6,5
Marhamat	12	4,3
Shahrixon	17	6,1
Paxtaobod	6	2,2
Xo'jaobod	8	2,9
Andijon sh.	106	38,1
Xonobod sh.	13	4,7

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-avgust oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 61 tani tashkil qilgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar (24 ta yoki jamidagi ulushi 39,3 %), Andijon (7 ta yoki 11,5 %), Asaka va Oltinko'l tumanlari (4 ta yoki 6,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bo'z, Jalolquduq, Ulug'nor, Qo'rg'ontepa va Paxtaobod tumanlari (1 ta yoki 1,6 %), Baliqchi, Shahrixon va Xo'jaobod (2 ta yoki 3,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 11 ta, Turkiya Respublikasi - 11 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 10 ta, Qirg'iziston Respublikasi – 13 ta, Koreya Respublikasi - 3 ta, Hindiston Respublikasi – 3 ta va Afg'oniston Islom Respublikasi - 3 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-avgust oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Белоруссия, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (28 ta), savdo (9 ta), qurilish (9 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (6 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (2 ta), axborot va aloqada (3 ta) tashkil etgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-sentabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 26048 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-sentabr holatiga qaraganda 17,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 9174 tasi (35,2 %) Andijon shahri, 2499 tasi (9,6 %) Asaka, 1809 tasi (7,0 %) Andijon, 1662 tasi (6,4 %) Shahrixon hamda 1387 tasi (5,4 %) Oltunko'l tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 26048 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 8011 tasi (30,7 %) - savdo, 6349 tasi (24,4%) - sanoat, 2889 tasi (11,1 %) - qurilish, 2005 tasi (7,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1431 tasi (5,5 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 555 tasi (2,1 %) – axborot va aloqa sohasi, 632 tasi (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1187 tasi (4,6%) – tashish va saqlash, shuningdek 2989 tasi (11,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-avgust oylarida 3939 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1646 taga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahri (1195 ta), Asaka (339 ta), Shahrixon (315 ta), Andijon (282 ta) va Izboskan tumanlari (230 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Bo'z (86 ta), Ulug'nor (55 ta) tumanlari hamda Xonobod shahrida (77 ta) tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1550 ta), sanoatda (1112 ta), qurilishda (457 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (161 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (81 ta) va axborot va aloqada (67 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-sentabr holatiga 712 tani tashkil etib, ulardan 686 tasi yoki 96,3 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 79,6 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




● Ro'yxatdan o'tgan
 ● Faoliyat ko'rsatayotgan
 ● Faoliyat ko'rsatmayotgan




● Ro'yxatdan o'tgan
 ● Faoliyat ko'rsatayotgan
 ● Faoliyat ko'rsatmayotgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 45,5 % yoki 312 tasi sanoat, 11,8 % yoki 81 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 10,5 % yoki 72 tasi savdo, 19,5 % yoki 134 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 1,8 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % yoki 9 tasi qurilish, 0,7 % yoki 5 tasi axborot va aloqa hamda 7,9 % yoki 54 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash hamda axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Andijon viloyati	129	100
<i>Tuman va shaharlar:</i>		
Oltinko'l	3	2,3
Andijon	11	8,5
Baliqchi	6	4,6
Bo'z	9	7,0
Buloqboshi	10	7,8
Jalolquduq	0	0
Izboskan	13	10,1
Ulug'nor	0	0
Qo'rg'ontepa	9	7,0
Asaka	11	8,5
Marhamat	4	3,1
Shahrixon	13	10,1
Paxtaobod	0	0
Xo'jaobod	0	0
Andijon sh.	35	27,1
Xonobod sh.	5	3,9

2019-yil yanvar-avgust oylarida 129 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 52 taga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Andijon (35 ta), Shahrixon (13 ta), Andijon va Asaka (11 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Oltinko'l (3 ta) va Marhamat (4 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 55,8 % yoki 72 tasi sanoat, 16,3 % yoki 21 tasi savdo, 9,3 % yoki 12 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 9,3 % yoki 12 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,5% yoki 2 tasi qurilish, 2,3 % yoki 3 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,8 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 0,8% yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 3,9 % yoki 5 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi**

Tel.:74-228-29-74